



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2023 yil 21 sentyabr

№ 1826

### O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

**Vaxobov Toxirjon Zafarovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Furqat tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Qosimov Xurshid Iskandarovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Furqat tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Axmedov Shuxratjon Kamilovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Zaripov Rustam Raxmatjonovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Quvasoy shahar sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Sheraliyev Avazbek Muxammadovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Quvasoy shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Ismoilov Odiljon Muxamadjonovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Farg‘ona shahar sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin;

**Sabirov Ilgizar Matyakubovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning navbatdagi o‘n yillik muddatiga, shundan besh yil muddatga Toshkent shahar jinoyat ishlari bo‘yicha Chilonzor tuman sudining raisi lavozimiga tayinlansin;

**Meliboyev Tal‘atjon Baxtiyorovich** – sudyalik lavozimida bo‘lishning muddatsiz davriga, shundan besh yil muddatga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Norin tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin;

**Ulug‘bekov Mashrabjon Ruzibuvoyevich** – sudyalik vakolati muddati davriga Sirdaryo viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Sirdaryo tuman sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg‘ona viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘qon shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**X.Yodgorov**